

Мензникулова Насиба, Жумаева Гулнора

Преподаватель, ТерГУ,

Сафаров Абдумалик, Студент, ТерГУ,

Узбекистан, г. Термез

4-sinfda matematikadan mustaqil ishlarni tashkil etishning xususiyatlari.

Annotasiya. Ushbu maqola 4- sinf o`quvchilarining matematika darslarida mustaqil ishlarini tashkil etishni, o`quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas`uliyatni va sof vijdonlilikni, to`g`ri va aniq so`zlashni, hisoblash, o`lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalash haqida ma`lumot berilgan.

Kalit so`zlar. Mustaqil ishlar, hisoblash, o`lchash, matematik masala.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga matematikadan samarali ta`lim berilishi uchun o`qituvchi boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasini egallab, chuqur o`zlashtirib borishlari lozim.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bug`ini jamiyatdagi demokratik o`zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta`lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta`lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta`lim tizimi hisoblanadi.

Matematika o`qitishning asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarda hisoblash, o`lchash va grafik ko`nikmalarning ma'lum aniq sistemasini hosil qilishdan iborat, boshqacha aytganda, bu sistema eng sodda amallarni bajarishdan iborat bo`lib, ko`p marta takrorlanish hisobiga avtomatlashishgacha etkaziladi.

O`quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishni, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishni o`rganishlari kerak. Shuningdek, og`zaki va yozma xulosalar qilishni o`rganishlari kerak.

Shunga qaramay, hozirgi vaqtda boshlang'ich matematika kursini o'rganishni faqatgina ko'nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o'zlashtirish bilan almashtirish mumkin emas.

Matematika o'qitishda nazariy saviyani oshirish talabi nimani bildirishini ko'rsatish uchun bir nechta misol keltiramiz:

Oldingi dasturga binoan hisoblash ko'nikmalari, xususan 20 va 100 ichida qo'shish va ayirish ko'nikmalari amallar xossalariga tayanilmagan holda tarkib toptirilardi: uzoq vaqt davomida 2,3 va ba'zan 4 yil bolalar amallarning biror xossasining qo'llanilishiga asoslangan qator faktlar bilan xossalarning o'zini bilmagan holda tanishishadi. Aslida esa o'quvchilarni to'rtta asosiy xossa haqidagi bilim bilan sonni yig'indiga va yig'indini songa qanday qo'shish hamda sonni yig'indidan va yig'indini sondan qanday ayirish kerakligi bilan tanishtirishning o'zi yetarli, amaldagi dasturlarda ana shu maqsad o'quvchi 100 ichida, keyinchalik esa 1000 ichida ko'p xonali sonlarni og'zaki qo'shish va ayirishda har qanday misolni yechishning har xil usullarini mustaqil topish imkoniyatiga ega bo'lishi bilanoq amalga oshiriladi.

Matematika o'qitish bolalarning ma'lum bilim va malakalarigina o'zlashtirib olishlarini o'z vazifasi deb bilmay, balki ularda idrok, xotira, tafakkur, tasavvur kabi bilim qobiliyatlarining umumiy rivojlanishini ham nazarda tutadi. Bu to'plamdagi maqsadga muvofiq ish ularga aqliy faoliyatning muhim usularini o'rgatish analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraklashtirish, aniqlashtirish kabi aqliy jarayonlarini bajarishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish tarbiya bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi kerak. O'qitishning bu muhim vazifasi o'quv jarayonida o'quvchilarda zamonaviy dunyoqarashning shakllanishiga qulay sharoitlar yaratib berish zarurligini ifodalaydi.

O'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni va sof vijdonlilikni, to'g'ri va aniq so'zlashni, hisoblash, o'lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi.

O`quvchilarning matematik bilimlarni o`zlashtirishi faqat o`quv ishida to`g`ri metod tanlashga bog`liq bo`lmasdan, balki o`quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog`liqdir. Dars deb dastur bo`yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o`qituvchi rahbarligida o`quvchilarning o`zgarma soni bilan tashkil etilgan o`quv ishiga aytiladi.

Dars vaqtida o`quvchilar matematikadan nazariy ma`lumotga, hisoblash malakasiga, masala yechish, har xil o`lchashlarni bajarishga o`rganadilar, ya`ni darsda hamma o`quv ishlari bajariladi.

Matematika boshlang`ich kursining boshqa o`ziga xos tomoni nazariy amaliy masalalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o`quv malakalar singdiriladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari darslarda misol va masalalarni amaliy ravishda bajarib, ko`nikma va malakalarga ega bo`lib boradilar. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o`quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo`lib ishlashlari, ekskursiyalar, sinfdan tashqari ishlardan iborat.

Boshlang`ich sinflarda o`qitish tarbiya bilan uzviy bog`lanib amalga oshirilishi kerak. O`qitishning bu muhim vazifasi o`quv jarayonida o`quvchilarda zamonaviy dunyoqarashning shakllanishiga, millat shaxsining ko`pgina qimmatli xususiyat va sifatlarini shakllantirishga eng qulay sharoitlar yaratib berish zarurligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jumaev M.E. Matematika o`qitish metodikasidan praktikum. – T.: O`qituvchi, 2004.
2. Jumaev M.E., Tojjeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2005.